



ARAB TILI UNDOSH TOVUSHLARINI O`RGANISH USLUBLARI

Astanova Gulnora Aminovna

BuxDU o`zbek tilshunosligi va

jurnalistika kafedrası professori, f.f.d.

tel: (+998)98 2744803, e-mail: guli4803@mail.ru

Annotatsiya. Davlatimizning xorijiy Sharq mamlakatlari bilan ijtimoiy, siyosiy, madaniy va iqtisodiy aloqalari mustahkamlanib borayotgan bir paytda chet tillarini, jumladan, Sharq tillarini mukammal biluvchi, salohiyatli filologlar, tarjimashunoslar, sinxron-tarjimonlarni yetishtirib berish dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Bunda O`zbekistonning uzluksiz ta`lim tizimiga chet tillarini o`rgatish bo`yicha xalqaro ta`lim standartlarini joriy qilish va "chet tillarini egallashning umumyevropa kompetensiyalari: o`rganish, o`qitish, baholash" darajalariga asoslanish muhim ahamiyat kasb etadi. Shunga ko`ra mazkur maqolada arab tili fonetikasini o`rganishda undosh tovushlarni klassifikatsiyaga bo`lib o`rgatishga e`tibor qaratilgan.

**Kalit so`zlar:** arab tili, undosh, tovushlar, klassifikatsiya, tovush paychalari, o`zbek tili.

Kirish. O`zbek tili nuqtai nazardan, tilimizdagi mavjud 25 ta undoshning uchasi boshqa tillardan o`zlashgan. Ular: «f», sirg`aluvchi «j» va «ts» tovushlaridir.

«F» tovushi o`zbek tiliga dastlab forsiy va arabiy so`zlar orqali kirib kelgan. M.: fan, fikr, fatvo, maxfiy, mufti (arabiy), farmon, raftor, hafta, zarboft (forsiy).


Sirg`aluvchi «j» tovushi dastlab forsiy so`zlar orqali kirib kelgan. M.: mujda (xushxabar), ajdar, gijda.

Bu ikki tovush, ya`ni «f» va sirg`aluvchi «j» XIX asr oxirlaridan boshlab ruscha-internatsional so`zlar orqali ham kirib kela boshladi. M.: fabrika, bufet, konfet, fufayka, garaj, jirafa, jurnal, dublyaj, reportaj, peyzaj. «Ts» tovushi tilimizga faqat ruscha-internatsional so`zlar orqali kirib kelgan. M.: konstitutsiya, konferentsiya, intuitsiya, litsey.

Tilimizdagi qolgan 22 ta undosh tovush o`z qatlamga mansub, ya`ni ular o`zbek tilining o`zida azaldan mavjud bo`lgan. Lekin faqat «v» tovushining 2 ta varianti mavjud. Lab-lab tovushi hisoblangan «v» o`z qatlamga mansub, «v» tovushining lab-tish varianti esa arabiy va ruscha-internatsional so`zlardagina uchraydi. M.: vatan, va, vagon, valyuta.

Undosh tovushlar quyidagi jihatlarga ko`ra tasnif qilinadi:

- I. Kelib chiqish manbaiga ko`ra.
- II. Tovush paychalarining ishtirokiga ko`ra.
- III. Ovozning ishtirokiga ko`ra.



IV. Hosil bo'lish o'rniga ko'ra.

V. Hosil bo'lish usuliga ko'ra.

VI. Tarkibiga ko'ra.

Kelib chiqish manbaiga ko'ra undosh tovushlar 2 guruhga bo'linadi:

1. O'z qatlamga mansub undosh tovushlar.

2. O'zlashgan qatlamga mansub undosh tovushlar.

Asosiy qism. Biroq, arab tili nuqtai nazaridan olib qaralganda, undagi undosh tovushlar o'z qatlamiga mansub bo'lib, o'zlashgani mavjud emas.

Arab tili tovush paychalarining ishtirokiga ko'ra ham undosh tovushlar avvalo 2 ga bo'linadi:

1. Jarangli.

2. Jarangsiz.

Jarangli undoshlarni talaffuz qilishda tovush paychalari tarang tortiladi, umuman, bunda tovush paychalari faol ishtirok etadi. Jarangsiz undoshlarni talaffuz qilishda esa tovush paychalari sustroq ishtirok etadi.

Arab adabiy tilida quyidagi 8 ta jarangli undosh mavjud: **b, d, d, z, z., z, g', 'ayn.** Qolgan 13 ta undosh tovush esa jarangsiz undosh hisoblanadi. Ular: **k, s., s, t, t., f, x, c, x., sh, q, h, 'hamza.**

Ular quyidagi jadvalda ham o'z aksini topgan:

Hosil bo`lish  Hosil bo`lish usuli o`rni			Lab-lab	Lab-tish	tanglay				til o`rta	CHuqur	Bo`g`iz tovushlar		halqum
					tishlar orasi	Tish orti.	Emfatik (tish)	Old			YUqori tovus	Pastki tovus	
Portlovchi	shovqinli	Jarangli	b			d	d.						
		Jarang-siz				t	t.		k	q			ham -za
	burun tovushlar		m					n					
Sirg`aluvchi	shovqin	jarangli			<u>z</u>	z	z.			g`	‘ayn		
		jarangsi		f	<u>c</u>	s	c.	s		x	x.	h	
	z tovushlar		o`					h	l	y			

Tebranma tovushlar						r					
Qorishiq tovushlar yoki affrikatlar						j					

Undosh tovushlarning ovozning ishtirokiga ko`ra tasnifi.

Undosh tovushlar ovozning ishtirokiga ko`ra ham 2 guruhga bo`linadi:

1. Sonorlar: m, n, l, r.

2. Shovqinlilar: qolgan 21 ta undosh shovqinlilarga kiradi.

Sonorlar tarkibida un shovqinga nisbatan kattaroq mavqe egallaydi. Ular o`z jarangdorligiga ko`ra unli tovushlarga yaqin turadi.

Shovqinli undoshlarda esa shovqin unga nisbatan kattaroq mavqe egallaydi.

Undosh tovushlarning hosil bo`lish o`rniga ko`ra tasnifi

Mavjud 28 ta undosh tovush bo`g`iz zonasida, til zonasida yoki lab zonasida hosil bo`ladi. Binobarin, bu jihatdan undoshlarni eng avvalo 3 ga bo`lish mumkin:

1. Bo`g`iz undoshi.

2. Til undoshlari.

3. Lab undoshlari.

Mazkur bo`linish jadvali yuqorida ko`rsatilgan.

Undosh tovushlarning hosil bo`lish usuliga ko`ra tasnifi.

Undosh tovushlarning hosil bo`lish usuliga ko`ra yoki aytilish usuliga ko`ra ham undoshlar 2 ga bo`linadi:

1. Portlovchi: **b, d, d, k, m, n, t, t., q, 'hamza.** (10 ta).

2. Sirg'aluvchi: **z, z., z, 'ayn, y, l, s., s, c, f, x, x., sh, g', h, o', r.** (16 ta).

Hosil bo`lish usuliga ko`ra ba`zi tovushlar ayrim o`ziga xosliklarga ega. Masalan, «r» tovushi tebranma tovush hisoblanadi. Shuning uchun uni shartli ravishdagina sirg'aluvchi deb hisoblash mumkin. «L» tovushi esa sirg'aluvchilarga kiradi. Lekin havo oqimi tilning ikki tomonidan sirg'alib chiqadi. SHuning uchun ham u yon tovush deb yuritiladi.

Undosh tovushlarning tarkibiga ko`ra turlari.

Undosh tovushlar tarkibiga ko`ra ham 2 ga bo`linadi:

1. Yakka undoshlar.

2. Qorishiq undoshlar yoki affrikatlar.

Arab adabiy tilida 1 tagina affrikat mavjud bo`lib, u portlovchi “j” tovushidir. Qolgan 27 ta undosh yakka undosh hisoblanadi. Ular tarkibiga ko`ra soddadir.

Arab tili undosh tovushlari tavsifnomasi

s va z undoshlari tishlar orasida hosil bo`luvchi, sirg'aluvchi va shovqinli tovushdir. S undoshi – jarangsiz, z undoshi esa jaranglidir. Ularni talaffuz etishda til uchini tishlar orasiga joylashtirib, yuqoridagi tishlarga jipslashtiriladi.



SHunda til uchi bilan pastki tishlar orasiga hosil bo'lgan kichik tirqishdan bu tovushlar sirg'alib chiqadi. Bunday tovushlar o'zbek tilida yo'q. U ingliz tilidagi th harfi talaffuziga o'xshaydi, masalan (to) thank *minnatdorchilik bildirmoq*, there *u yerda*.

Izoh: Bunday harflar ishtirok etgan arabcha so'zlar forsiy va turkiy tillarda ishlatilganda oddiy s va z ga aylanadi.

“r” undoshi til uchining qattiq tanglayga muntazam urilib turishi jarayonida hosil bo'ladi. “R” undoshi talaffuzda o'zidan keyin kelayotgan unliga qarab goh qattiq, goh yumshoq talaffuz etiladi. Arabcha “r” rus tilidagi qattiq “r” ga o'xshab ketsada, ayrim hollarda u yumshoq talaffuz etiladi. “a” va “u” unlilaridan oldin kelgan “r” o'ta qattiq talaffuz etiladi. Masalan, robbū *xudoyim*, rubba *ko'p*. Biroq “i” bilan birga kelganda u rus tilidagi *r'* o'xshab ketadi. Masalan, “ribā” *sudxo'rlik*.

“o'” undoshi – lab-lab, jarangli sirg'aluvchi tovush. Uning talaffuzida lablar bir-biriga yaqinlashib oldinga intiladi va dumaloq havo yo'li hosil qilinadi. Rus va o'zbek tilida bunday tovush mavjud emas. Bu tovush ingliz tilidagi w ga o'xshaydi. Masalan: war *urush*. M: o'azūr *vazir*, o'asūr *yumshoq*.

“y” undoshi - o'rta tanglay sirg'aluvchi tovush. Uning sirg'alishi til o'rta devori bilan qattiq tanglay orasida hosil bo'ladi. Bunda rus tilidagi “y”ni talaffuziga nisbatan til ko'proq oldinga intiladi. SHuning uchun arabcha “y” rus tilidagi “y” ga nisbatan yumshoqroqdir. Masalan: yadū *qo'lim*, yasibu *u sakrayapti* kabi.

Shuningdek, “o'” va “y” undoshlari o'rni kelganda unli tovushlarga o'xshab ketadi. Shuning uchun ularni yarim unli tovushlar ham deyiladi.

“j” undoshi - til oldi, jarangli va shovqinli tovush. U o'zbekchadagi “j” tovushiga o'xshaydi. Masalan: jadūd *yangi*, tājir *savdogar*.

“k” tovushi – til o'rta, portlovchi, shovqinli, jarangsiz undoshdir. U til o'rta devori bilan qattiq tanglay orasidagi portlash natijasida hosil bo'ladi. U xuddi o'zbek tilidagidek bir oz yumshoqroq talaffuz etiladi, masalan: kataba *yozmoq*, kabūr *katta*.

“l” tovushi - til oldi tanglay undoshi. Uning talaffuzida til uchi tanglay oldiga yopishib turadi va ikki yonda qolgan tor tirqishlar orqali havo oqimi o'tib turadi. Masalan: labūb *aqlli*, jalūl *ulug'*.

“sh” undoshi til oldi, shovqinli, sirg'aluvchi, jarangsiz tovushdir. U o'zbek tilidagi sh harfiga talaffuz jihatidan juda o'xshash. Masalan, shadūdun (kuchli), basharun (inson).

s va **sh** tovushlari yozuvda س va ش ko'rinishga ega bo'lib, s nuqtasiz, sh uch nuqta ko'rinishiga ega bo'lgan bir xil shakldagi harfdir.

Xulosa.

Yuqorida tavsif etilgan tovushlar o'ziga xos xususiyat kasb etadi. Chunki bunday tovushlar talaffuzini o'rganish o'zbek o'quvchi yoki talabasidan juda katta mehnat va harakatni talab etadi. Shu kabi arab tilini o'rgatadigan har bir fan



o'qituvchisidan ham mazkur tovushlarni o'rgatishda katta mas'uliyat va diqqat, e'tibor talab etiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Abdullaev M. Arab tili. T., 2006.
2. Ibrohimov B. O'zbekcha-arabcha so'zlashgich. -T., 1994.
3. Ibrohimov N., Yusupov T. Arab tili grammatikasi. 1,2-jildlar.-T., 1998, 2003.
4. Talabov E. Arab tili. -T.: "O'qituvchi", 1993.
5. Astanova G.A. Arab tili saboqlari. Buxoro, 2023.
6. Astanova G.A. Arab tilidan boshlang'ich kurs. Buxoro, 2023.

